

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA O‘SIMLIKLAR HIMOYASINING HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI (1991-2016 yy.)

Karoboyev Suxrob Mustafakulovch,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti o‘qituvchisi, suxrobsamvmi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekistonda o‘simliklar himoyasini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1991–2016 yillar davomida qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mazmuni va amaliy ahamiyati yoritiladi. O‘simliklar karantini, fitosanitariya xavfsizligi hamda biologik xilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, huquqiy mexanizmlarning takomillashuvi va ularning qishloq xo‘jaligi barqaror rivojiga ta‘siri baholanadi.

Kalit so‘zlar: O‘simliklar muhofazasi, o‘simliklar karantini, fitosanitariya xavfsizligi, zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro hamkorlik, MDH davlatlari, davlat nazorati

STATE POLICY FOR CREATING AND IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK OF PLANT PROTECTION IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (1991-2016)

Abstract. This article analyzes the stages of formation and development of state policy aimed at ensuring plant protection in Uzbekistan in the early years of independence. The study highlights the main regulatory legal acts adopted during 1991-2016, their content and practical significance. Special attention will be paid to plant quarantine, phytosanitary safety, and the protection of biodiversity. The improvement of legal mechanisms and their impact on the sustainable development of agriculture are also assessed.

Keywords. Plant protection, plant quarantine, phytosanitary safety, pests, plant diseases, regulatory legal acts, international cooperation, CIS countries, state control

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО СОЗДАНИЮ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (1991-2016 гг.)

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития государственной политики, направленной на обеспечение защиты растений в Узбекистане в первые годы независимости. В исследовании освещаются основные нормативно-правовые акты, принятые в период 1991-2016 годов, их содержание и практическое значение. Особое внимание будет

уделено вопросам карантина растений, фитосанитарной безопасности и охраны биоразнообразия. Также оценивается совершенствование правовых механизмов и их влияние на устойчивое развитие сельского хозяйства.

Ключевые слова: Охрана растений, карантин растений, фитосанитарная безопасность, вредители, болезни растений, нормативно-правовые акты, международное сотрудничество, страны СНГ, государственный контроль

Dunyoda atrof-muhitning global ravishda o'zgarishi o'simliklarga antropogen tasirning ortishi, o'simliklarda zararkunandalar va kasalliklar ta'sir ko'lamining ortib borishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va o'simliklar muhofazasi tizimini takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda atrof-muhitning global miqyosda o'zgarishi, antropogen omillar ta'sirining kuchayishi natijasida o'simliklarda zararkunandalar, kasalliklar hamda begona o'tlarning tarqalish ko'lami tobora kengayib bormoqda. Ushbu holat qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Shu bois o'simliklarni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, fitosanitariya xavfsizligini ta'minlash va zamonaviy himoya choralarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan atrof muhit, xususan, o'simliklar muhofazasiga oid meyoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilingan bo'lib, bu borada bosh qomusimizda ham alohida modda kiritilgan edi. Xususan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan konstitutsiyamizning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur" ekanligi, 55-moddaga asosan esa "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida" ekanligi alohida belgilangan edi.¹⁵

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk yillaridanoq xalqaro miqyosda teng huquqli va o'zaro manfaatli subyekt sifatida 1992-yil 13-noyabrda "O'simliklar karantini sohasida hamkorlik to'g'risida"gi xalqlaro bitimga qo'shildi. Mazkur Bitim o'simliklar karantini sohasida tomonlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Unda karantin ostidagi zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlarning davlatlar hududiga kirib kelishi hamda tarqalishining oldini olish bo'yicha yagona qoidalar belgilangan. Bitim import, eksport va tranzit jarayonlarida karantin tekshiruvlarini amalga oshirish, fitosanitariya sertifikatlarini joriy etish hamda axborot va mutaxassislar almashuvini nazarda tutadi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda birgalikda choralar ko'rish, ilmiy-texnik hamkorlik va normativ hujjatlarni muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan¹⁶.

1993-yil 3-sentyabrda "Qimmatli va yo'qolib borayotgan o'simliklar hamda hayvonlar turlarini muhofaza etishni kuchaytirish hamda ulardan foydalanishni

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2017. 17, 19-betlar

¹⁶ <https://lex.uz/docs/-2599615>

tartibga solish to‘g‘risida”gi yana bir qaror bu yo‘nalishdagi ilk me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Ushbu qonun qimmatli va yo‘qolib borayotgan o‘simliklar hamda hayvonlar turlarining nodir genofondini muhofaza qilish va saqlab qolishni kuchaytirish, yovvoyi holda o‘sovchi dorivor, ozuqa va manzarali o‘simliklarning turlarini, yovvoyi hayvonlar mahsulotlarini chetdan respublikaga olib kirishni va respublikadan chetga olib chiqib ketishni tartibga solish, ularning turi va soni saqlanishini ta‘minlashni nazarda tutar edi.¹⁷

1995-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘simliklar karantini to‘g‘risida” gi Qonun ham o‘simliklar muhofazasiga oid muhim hujjatlardan sanalib, mazkur qonunda Respublika hududini chet mamlakatlardan kirib kelishi mumkin bo‘lgan, xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazuvchi karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari hamda begona o‘tlardan himoya qilishga qaratilgan. Ularning o‘z vaqtida aniqlanishi, tarqalishining oldini olish va yo‘q qilinishi, shuningdek respublikaning zararkunandalardan xoli hududlariga kirib borishini cheklash muhim vazifa etib belgilangan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi va boshqa o‘simlik mahsulotlarini yetishtirishdan tortib realizatsiya va foydalanishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda o‘simliklar karantini qoidalariga rioya etilishi hamda ushbu talablar ijrosi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish nazarda tutgan edi.¹⁸

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi o‘simliklar karantini va fitosanitariya xavfsizligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratib, bu borada bir qator xorijiy davlatlar bilan davlatlararo konvensiya va bitimlar **19** imzoladi. Ushbu hujjatlar o‘simliklar karantini sohasida hamkorlikni rivojlantirish, karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari hamda begona o‘tlarning davlatlar hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan.

Davlatlararo konvensiyalar doirasida tomonlar o‘zaro axborot almashish, fitosanitariya choralarini muvofiqlashtirish, eksport-import qilinadigan o‘simlik va o‘simlik mahsulotlari, ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek xalqaro talablarga mos karantin tadbirlarini amalga oshirish majburiyatlarini olgan. O‘simliklarni zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan kimyoviy yoki biologik vositalarning ikki va ko‘p tomonlama eksporti va importi tartibga solindi. Natijada mazkur kelishuvlar O‘zbekistonning o‘simliklar karantini tizimini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash hamda xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-249992>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/-119173>

¹⁹ 1998-yil 3-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Ukraina hukumati o‘rtasida bitim “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida” / <https://lex.uz/docs/-2179989>, 2001-yil 14-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Moldova respublikasi hukumati o‘rtasida konvensiya “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida”/ <https://lex.uz/docs/-2123930>, / 2003-yil 18-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Eron Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida bitim “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida” / <https://lex.uz/docs/-2750721>

Shu bilan birga O‘zbekiston 1997-yil 25-aprelda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga qo‘shildi²⁰.

1995-yildan 2017-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmatini O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini davlat inspeksiyalari, tumanlar, shaharlar o‘simliklar karantini davlat inspeksiyalari, temir yo‘l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portlaridagi va shosselardagi o‘simliklar karantini bo‘yicha chegara punktlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha ilmiy markaz, markaziy va viloyat karantin laboratoriyalari hamda karantin ostidagi o‘ta xavfli zararli obyektlarga qarshi kurashuvchi ixtisoslashgan fumigatsiya otryadlari amalga oshirgan.

Xulosa. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasida o‘simliklar muhofazasi va karantini sohasida izchil me‘yoriy-huquqiy baza shakllantirildi. Konstitutsiyaviy normalardan boshlab, o‘simliklar karantini, nodir va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlarini muhofaza qilishga oid maxsus qonun va qarorlar qabul qilinib, ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro hamkorlik mustahkamlana boshlandi. Bu hujjatlar respublika hududini xavfli zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish, ularning tarqalishining oldini olish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”. 2017. 17, 19-betlar
2. <https://lex.uz/docs/-2599615>
3. <https://lex.uz/docs/-249992>
4. <https://lex.uz/docs/-119173>
5. 1998-yil 3-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Ukraina hukumati o‘rtasida bitim “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida” / <https://lex.uz/docs/-2179989>
6. 2001-yil 14-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Moldova respublikasi hukumati o‘rtasida konvensiya “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida” / <https://lex.uz/docs/-2123930>, /
7. 2003-yil 18-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Eron Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida bitim “O‘simliklar karantini sohasida hamkorlik to‘g‘risida” / <https://lex.uz/docs/-2750721>
8. <https://lex.uz/docs/-1197952>

²⁰ <https://lex.uz/docs/-1197952>